



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariysi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariysi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariysi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariysi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariysi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirlari

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiiev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

Gafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'lifi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulسانам Нематовна – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiysi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiysi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361

# MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli:<br>tizimli boshqaruv yondashivi asosida shakllanishi.....                             | 14  |
| Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna  |     |
| O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....   | 20  |
| Abduraximov Doniyor Abdu said o'g'li  |     |
| Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi:<br>xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....                        | 25  |
| Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi  |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini<br>rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....            | 30  |
| Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi   |     |
| Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar mакtablarining zarurati va ahamiyati .....  | 33  |
| Eshmuminova Oybarchin Botirovna   |     |
| Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....  | 39  |
| Isayeva Mushtariy Alisher qizi  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....   | 44  |
| Maydonova Saboxat Sadulloyevna  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni<br>shakllantirishning o'ziga xos jihatlari..... | 48  |
| Mingbayeva Barno Ubaydullayevna   |     |
| Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners<br>in English Language Classes Through Digital Technologies.....       | 52  |
| Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna   |     |
| Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....   | 55  |
| Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi   |     |
| "Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....   | 59  |
| Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna   |     |
| O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....   | 65  |
| Umarova Feruzabonu Bobir qizi   |     |
| Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda<br>emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....              | 68  |
| Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich   |     |
| O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....                                       | 72  |
| Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li   |     |
| Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....   | 76  |
| Boypolvonov Barot Djonqobilovich  |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning<br>lingvistik va lingvometodik talqini.....               | 81  |
| Ismoilova Zarnigor raximjon qizi  |     |
| O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....                                       | 86  |
| Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li   |     |
| Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri .....   | 90  |
| Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna   |     |
| Oly ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....                                       | 96  |
| Koshayeva Sansabila Kamiljanovna  |     |
| Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....   | 100 |
| Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna   |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati .....  | 105 |
| Murodova Madina Karim qizi  |     |
| Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....   | 108 |
| Ortiqov Mironshoh Sodiqovich  |     |



|  |     |
|--|-----|
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda<br>Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliv ta'lim tizimiga tatbiq etish..... | 110 |
| Pakirdinova Sharofat Abdumataljonovna  |     |
| O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....  | 115 |
| Quronboyeva Mavluda Bahodirovna  |     |
| Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....   | 120 |
| Sidiqova Yulduz Sobirovna  |     |
| 6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....  | 123 |
| Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi  |     |
| Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....   | 128 |
| Yusupov Ulug'bek Kadirovich  |     |
| Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda<br>motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish.....                                       | 132 |
| F. Zaynabuddinov   |     |
| Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза .....  | 135 |
| Киреева Эльвина Фларитовна   |     |

# ДОШКОЛЬНОЕ ПРЕ-СCHOOL МАКТАБГАЧА OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA NOMUTAXASSISLIK YO'NALISHLARIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Koshayeva Sansabila Kamiljanovna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktaranti

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lismuassasalari talabalari o'quv jarayonida etakchi rol o'ynashi tufayli, ularning ta'limalishiga qaratilgan aniq maqsad va vazifalarga ega ekanligi, bu esa jarayon samaradorligini belgilovchi birlamchi kuch sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. An'anaviy, sun'iy motivlarga asoslangan o'qitish uslublaridan farqli o'laroq, zamonaviy, shaxsga yo'naltirilgan, kommunikativ metodlar talabalarni o'quv jarayonining teng huquqli sub'ekti sifatida shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ular o'quv maqsadini mustaqil aniqlash va tegishli motivatsiya bilan ta'minlanishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** motivatsiya, metod, kommunikativ, integratsiya, lingvodidaktika, operatsion maqsad, meta-motivatsiya.

**Abstract:** The article emphasizes that students of higher education institutions play a leading role in the learning process, as they possess clearly defined goals and objectives, which are considered the primary driving force determining the effectiveness of the educational process. Unlike traditional teaching methods based on artificial motivation, modern, learner-centered, and communicative approaches aim to transform students into equal participants in the learning process, enabling them to independently define their learning goals and be provided with appropriate motivation.

**Key words:** motivation, method, communicative, integration, linguodidactics, operational goal, meta-motivation.

**Аннотация:** В статье подчёркивается, что студенты высших учебных заведений играют ведущую роль в учебном процессе, поскольку обладают чёткими целями и задачами обучения, которые рассматриваются как первичная сила, определяющая эффективность образовательного процесса. В отличие от традиционных методов обучения, основанных на искусственной мотивации, современные, личностно-ориентированные и коммуникативные методы направлены на превращение студентов в равноправных субъектов образовательного процесса, предоставляя им возможность самостоятельно определять учебные цели и получать соответствующую мотивацию.

**Ключевые слова:** мотивация, метод, коммуникативный, интеграция, лингводидактика, операционная цель, мета-мотивация.

## KIRISH

Ma'lumki, zamonaviy yoshlarni xorijiy tillarga o'qitishda katta ahamiyatga ega muammolardan biri o'qitish vositalarining eng muhimi, ya'ni o'quv materiallari hisoblanadi. O'quv materiallariga tarqatma, audio, video, ko'rgazmali materiallar hamda darslik va o'quv qo'llanmalari kiradi. O'qituvchi omilini belgilab beruvchi komponentlardan hisoblangan o'quv materialini tanlashda birinchi e'tibor beriladigan jihat – mazkur material talabalar qiziqishini stimullashi, xususan, til o'qitishda ular motivatsiyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsata olishidir. O'qituvchi o'quv materiallарini tanlashi va talabalarga taqdim etish usullari to'g'risida o'layotganda, talabalar motivatsiyasi yoki uni shakllantirish, rivojlantirish va kerakli darajada saqlab turish masalasida ham bosh qotirishi muqarrar.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maqolada xorijiy tilni o'qitish bo'yicha metodik, psixologik va lingvodidaktik manbalarga tayanilgan. Ayniqsa, R. P. Milrud, L. R. Sakaeva, E. N. Shepel, A. Yu. Narshabaeva kabi olimlarning xorijiy tilni motivatsiya asosida o'rnatish haqidagi nazariyalari asos qilib olingan. Bu manbalar o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirish zarurligini asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola tahliliy-tavsifiy metodga asoslangan bo'lib, xorijiy tilni o'rgatishda motivatsiyani rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalar o'rganilgan. Tahlil asosan lingvodidaktik nazariya, psixologik yondashuv va amaliy dars jarayonlari asosida olib borilgan. Shuningdek, V. A. Buxbinder va boshqa mutaxassislarning mashq tizimlari ham qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bilim olishga oid motivatsiya til o'rganuvchining mustaqil ta'limga ehtiyojida namoyon bo'ladi. Bu motivatsiya etishmayotgan lisoniy bilimlarni egallahsha intilish, xorijiy til materialini o'zlashtirishning ma'qul usullarini egallahsha ehtiyoj, til aspektlari haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, chuqurlashtirish, lug'at boyligini kengaytirishga ehtiyojlarni o'z ichiga oladi [3].

Tilni bilishga oid motivatsiya ichki motivatsiya sifatida til materialiga nisbatan ijobiy munosabatni nazarda tutadi. Uni shakllantirish:

- vositali, ya'ni kommunikativ motivatsiya orqali;
- vositasiz – o'rganuvchilarning til materialida izlanish faoliyatini qo'zg'atish, o'rganuvchilar o'z nutqiy imkoniyatlarini kengaytirish va chuqurlashtirish uchun til materialiga ehtiyojini his qildirish orqali erishiladi.

Instrumental motivatsiya til materialini egallahsha asosiy rol o'ynab, til materiali bilan tanishishdan to uni egallaganlik darajasini nazorat qilishgacha bo'lgan bosqichlarni belgilaydi. Nomutaxassislik yo'nalişlarida ingliz tilini o'qitishda instrumental motivatsiya majmuuning tarkibiy qismi – kasbiy o'sishga intilish turadi, chunki ingliz tilini bemalol egallaganlik talabalarga mutaxassisligi bo'yicha autentik adabiyotlar bilan ishlash, xalqaro tadbirdorda ishtirok etish, xorijda malaka oshirish dasturlarida qatnashish imkonini beradi.

Xorijiy tillarni o'qitish har doim amaliy shaklda bo'lishi, hamda hozirgi kunda dolzarb bo'lgan amaliyotning o'quv jarayoni bilan integratsiyasi inobatga olinsa, o'rganuvchilarga tilning real hayotda qo'llaniladigan shakli o'rgatilishi, kasbiy va kundalik hayotida kerak bo'ladigan ko'nikmalar bilan ta'minlanishi motivatsion nuqtai nazardan ham ayni muddao bo'lishi muqarrar. Ma'lumki, ehtiyoj, qiziqish va qadriyatlarga mos o'quv maqsadlar o'rganuvchilarda o'rganilayotgan materialga bo'lgan qiziqishni oshiradi.

Maqsadlarning aniqligi talabalarga bir tomondan motivator sifatida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, o'quv jarayonining mazmun, mohiyat, maqsad va vazifalari o'zlarining ko'zlagan maqsad va qadriyatlariga mos kelmasa, demotivator sifatida xizmat qiladi, ya'ni motivatsiyaning susayishiga olib keladi. O'qituvchi nafaqat motivatsiyaning umumiy tabiatini, balki o'quv jarayoni samaradorligiga xizmat qiluvchi omillar va shart-sharoitlarni ham inobatga olishlari zarur. Motivatsiya o'rganish va o'zlashtirish jarayonining prujinasidir. Lekin uning tashqi ta'sir orqali rivojlantirilishi va qo'llab-quvvatlanishi talabalarning sub'ektiv jihatni bo'lganligi, uni faqat talabaning ishtyoqi va moyilliklari orqali belgilanishi o'qituvchilar oldida qator qiyinchiliklarni tug'diradi [4].

O'qituvchi motivatsiyaga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir eta olmaydi, u faqat talabalarni materialni o'zlashtirishga yo'naltirib, ularda o'quv faoliyatini olib borishga va bilim, ko'nikmalarini chuqurroq o'zlashtirishga qiziqish uyg'otishi mumkin. Bu esa talabalarda R. P. Mil'rud tadqiqotlarida tahlil qilingan xorijiy tilni o'rganishning "xususiy mazmun"ini hosil qiladi. R. P. Mil'rud ta'rificha, shaxsiy mazmun o'quv faoliyatining sub'ektiv ahamiyatga ega maqsadlari asosida hosil bo'ladi va xorijiy tillarni o'rganishda shaxsiy mazmun kasb etib, xorijiy tilni bilish talabaga ahamiyatlari faoliyat bilan bog'liq bo'lib, motiv sifatida faollashadi [1].

Xorijiy tillarni o'rganish motivatsiyasi tadqiqi bilan shug'ullangan tadqiqotchilar motivatsiya o'quvchilarda o'z-o'zidan mavjud bo'ladi va o'qituvchilar ularni qo'llab-quvvatlab turishi kerak, deb hisoblaydi. Buni darslarda, xususan, maktab darslarida bolalarning xorijiy tillarni ishtyoq bilan o'rganishi, vaqt o'tgan sari ayrimlarining ishtyoqlari so'na boshlashi bilan asoslaydi. Bu holatni bolalarning yangilikka bo'lgan tabiiy qiziqishi sifatida baholash to'g'riq bo'lar edi. Qiziqishni oziqlantirib, quvvatlab, kerakli yo'nalişga yo'naltirib, o'rganuvchilarda motivatsiyani rivojlantirish mumkin.

O'qituvchi talaba motivatsiyasini o'z zimmasiga olishi, yashirin ravishda ataylab, uning motivatsiya va muvaffaqiyatga bo'lgan ishonchini tortib olishiga o'xshaydi. Bu esa o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini ta'minlash ko'nikmasining rivojlanish sur'atiga putur yetkazishi mumkin. Shu bilan birga u talabaga foyda bermaydigan tashqi motivatsion manbalarga tobelikni paydo qiladi, natijada talaba ko'zlagan maqsadni emas, keyingi motivatsiyaning tashqi manbasini ta'qib qila boshlaydi.

Androgogik metodlar xorijiy til o'qitish metodikasida qo'llanganda, fikrimizcha, talabalarga ingliz tili o'rganishdan maqsad nimaligini o'qituvchilar ulardan voyaga yetgan o'rganuvchi sifatida nimani kutayotganligini (shu jumladan, o'z motivlariga mas'ullik va o'rganish jarayonida yetakchilik qilish) aniq yetkazib berishi, til o'ga-



nayotgan talabalarda barcha nutq malakalarini qo'llashda o'z-o'ziga ishonch tug'diradi. Ehtimol, bu ishonch doimiy motivatsiya manbaiga aylanishi mumkin. Bunday manba egasida motivatsiyani qayta shakllantirishga ehtiyoj tug'ilmaydi.

Talabalar motivatsiyasini rivojlantirish va takomillashtirishda o'quv materialining tarkibiy qismlaridan bo'lgan mashqlar sistemasi o'quv faoliyatiga nisbatan munosabatni belgilaydi. Metodist olim V. A. Buxbinder information, operatsion va motivatsion mashq turlarini taklif qilgan bo'lib, ularning birinchisi materialni tushunish va o'zlashtirishni ta'minlashga, ya'ni undagi kerakli ma'lumotlar taqdim etilishiga asoslansa, ikkinchisida avtomatizm shakllantiriladi, ya'ni operatsiyalar mustahkamlanadi, uchinchisi esa nutq malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u o'rganuvchini muloqotga motivlashtiradi.

Informatsion mashqlar tilga oid bo'lib, til hodisalari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash xususiyatiga ega. Masalan: aniqlang, toping, guruhlang, ajrating, o'zgartiring kabi shartlar.

Operatsion mashqlar nutqqa oid bo'lib, mavjud bilimlarni mashq qilib turish orqali ko'nikma hosil qiladi. Informatsion bosqichda egallangan til materialini rivojlantirib, uni nutqda qo'llash malakasini avtomatlashdiradi. Masalan: leksik va grammatik birikmalarni mashq qilish, o'rnini almashtirish, o'zgartirish kabi.

Motivatsion mashqlar haqiqiy til sharoitiga yaqin bo'lgan nutqiy muomalalarni amalga oshirish, malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish bilan bog'liq bo'lib, yaqinlik darajasi oddiy fikr bildirishdan to teatrlashtirilgan dars lavhalarigacha namoyon bo'ladi.

V. A. Buxbinderning mashqlar nazariyasi psixolingvistika ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, xorijiy til o'qitish voqelegini aniqroq aks ettiradi. O'zbekiston xorijiy til metodistlarining 1970–1980-yillarda bajargan ilmiy tadqiqotlarida (J. Jalolov, T. Sattorov, A. Soynazarov va b.) mashqlar tizimini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashq turlariga bo'lishni taklif qilishgan. Bunda shakllantiruvchi mashq til materialini o'zlashtirishda, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qo'llanilishida va takomillashtiruvchi mashq xorijiy tilda fikr bayon etish va o'zga shaxs fikrini idrok etib tushunish maqsadida bajariladi [2].

Zamonaviy lingvodidaktikada til o'rganuvchilarining yoshidan qat'i nazar, mustaqil ta'llim olishga tayyorligi va egallagan bilimlaridan qoniqish hissining paydo bo'lishi muhim ekani ko'p marotaba ta'kidlangan. Eng ko'p pedagogik samaraga o'quvchilarining faolligi natijasidagina erishiladi. Neytral-passiv idrok qilish shaklida esa uni egallab bo'lmaydi. Shu o'rinda Albert Eynshteynning "Men hech qachon o'quvchilarimni o'qitmaganman. Men faqat ularni o'rgana olishlari uchun sharoitlar bilan ta'minlashga harakat qilganman", degan so'zlar qo'il keladi. Mazkur jarayonni amalga oshirishda meta-kognitiv deb nomlangan motivatsiya asosli. Bu turdagи motivatsiyani shakllantirishda o'quvchilarining shaxsiy qobiliyat va qiziqishlari, ularning moyillik va ehtiyojlarini qo'llash muhim. U talabalarga o'rganilayotgan tilni egallah uchun kerakli va samarali bo'lgan eng ma'qul, qulay va qiziqarli mashqlarni tizimlashtirish va tanlash imkoniyatini beradi.

Meta-kognitiv motivatsiyani rivojlantirish o'quvchilarini xorijiy tilni egallahslari uchun ma'lum usullar bilan qurollantirishni nazarda tutib, ushbu usullarning mazmun-mohiyati o'quvchilarga aniq va qiziqarli bo'lishi kerakligini taqozo etadi. O'quvchilarga ko'proq eng ma'qul usulni ko'rsatish orqali ularda yangi til materiali bilan mustaqil tanishish ehtiyojini paydo qilish kerak.

O'qish muloqot vositasi sifatida keng mustaqil ishni tashkillashtirishni nazarda tutadi. Ma'lumki, metodikada o'qish o'zining tegishli motiv, maqsad va natijasiga ega bo'lgan kommunikativ faoliyat turi sifatida belgilanadi. O'qishni o'rgatish jarayonini tashkil qilishda o'quvchi uchun o'qishdan eng asosiy maqsad – tegishli kommunikativ vazifalarni kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumot olish ekanligini yodda tutmoq lozim.

Talabalarni nafaqat tushunarli va qiziqarli matnlar bilan, balki nazorat bilan ham motivlash mumkin.

Talabalarni motivlashtirishda, avvalo, ularga turki bo'ladigan omillardan foydalanish va bu orqali ularda ehtiyojni paydo qilishning o'zi etarli emas. O'qituvchi o'z mahoratini ishga solib, talabalarda paydo bo'lgan ehtiyojni o'z qadriyatlarini bilan bog'liqligini anglash jarayonining ijobi o'tishini ta'minlashi zarur. Ayni shu jarayon talabalarda darsda qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltiradigan faoliyatni boshlashiga asos bo'la oladi.

Talaba motivatsiyasi sifatli ta'llimning muhim bo'lgan asosiy tarkibiy qismidir. Bu sifatni saqlab turish uchun talabalar motivatsiyasini rivojlantirishda eng katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan beshta tarkibiy qism – talaba, o'qituvchi, mazmun, metod/jarayon va muhitni keltirib o'tamiz. Bunda:

- talaba – ma'lumot, qibiliyat, qiziqish va ta'llimni qadrlash xususiyatlariga ega bo'lishi;
- o'qituvchi – yaxshi bilimga ega bo'lishi bilan birga, butun diqqat-e'tiborini o'quv jarayoniga qaratib, uni nazorat qilishi, talabalariga vafodor, hozirjavob hamda ilhomlantiruvchi bo'lishi;
- mazmun – aniq, dolzarb, o'z vaqtida, stimullovchi hamda talabaning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlariga mosligi;
- metod yoki jarayon – kashf qiluvchi, undovchi, qiziqarli, foydali va talabaning real hayotida qo'llash mumkin bo'lgan qurollar bilan ta'minlanishi;

- muhit – ommabop, xavfsiz, ijobiy, maksimal darajada shaxsga qaratilgan va imkoniyatlarni kengaytiruvchi bo'lishi kerakligi uqtirib o'tilgan.

Ushbu motivlovchi elementlar doimiy ravishda talabalarga ta'sir ko'rsatsagina, motivatsiya optimallashadi. Ya'ni ideal sharoitda talabalar har bir darsda ko'plab motivatsiya manbalariga ega bo'lishi talab qilinadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarning xorijiy tilni o'rganish motivatsiyalari darajasi, ularga ta'sir qiluvchi omillar hamda motivatsiyani rivojlantirish metodlari haqida so'z yuritib, xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, nomutaxassislik yo'naliishlari talabalariga xorijiy til o'qitishda ijobiy motivatsiya shakllanishi asosida yotuvchi to'rtta, ya'ni motivation, maqsadga oid, emotsiyonal hamda bilishga oid muhim tarkibiy qismlar inobatga olinishi, tashqi motivatsiya asosida ichki (kommunikativ) motivatsiyani shakllantirish, shu bilan birga, motivatsiya rivojiga to'sqinlik qiluvchi motivilar ta'sirini kamaytirish uchun sharoitlar yaratish va nihoyat, bo'lajak kasbiy faoliyat xususiyatlari asosida yotgan kasbiy motivatsiyalarni rivojlantirishni inobatga olish muhimdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. L. R. Sakaeva, dokt. filol. fan., professor A. R. Baranova, kand. ped. fan., dotsent. Metodika obucheniya inostrannym yazykam (o'quv qo'llanma, N. I. Lobachevskiy nomidagi Matematika va mexanika instituti talabalari uchun). – Qozon, KFU, 2016. – 189 bet.
2. Shepel, E. N. Integratsiyalashgan o'quv dasturlari va xorijiy tilni o'qitish [matn] / E. N. Shepel // Ijtimoiy tillar mакtabda. – 1990. – №1. – B. 8–13.
3. Narshabayeva A. Yu. Ikki tillilik asosida xorijiy tilni o'qitishda ona tilining o'rni // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2021-yil, №6. – ISSN 2181–1717 (E).
4. A. Yu. Narshabayeva. Shet tilin oqytudyn bastapky kezeñinde qostilde bilim berudiñ erekshelikteri // Konferensiya materiallari. Xorijiy tillar ta'limida innovatsion va raqamli texnologiyalar. – 2021/4. – B. 88–89.

- 13.00.00** Pedagogika fanlari
- 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
- 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03** Maxsus pedagogika
- 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07** Ta'limda menejment
- 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00** Tarix fanlari
- 19.00.00** Psixologiya fanlari
- 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00** Kimyo fanlari
- 03.00.00** Biologiya fanlari
- 09.00.00** Falsafa fanlari
- 10.00.00** Filologiya fanlari
- 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.